Islom sivilizatsiyasi loyihalari bo‘yicha
HISOBOT

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti (ToshDO‘TAU) Islom sivilizatsiyasi loyihalari doirasida 20 ta ilmiy va innovatsion loyihada asosiy ijrochi sifatida ishtirok etmoqda. Shundan 18 tasi medialoyiha, 2 tasi ekspozitsiya qismidir. Quyida har bir loyihaning qisqacha tavsifi va mualliflari keltiriladi.

1. IV/36. “Amir Temur davrida adabiyot” ekspozitsiya qismi: “Amir Temur davri adabiyot namoyandalari” hujjatli filmi

Qisqacha tavsif: Amir Temur davrida adabiyotga va turkiy tilga qaratilgan e’tibor hamda shu davrda yashagan adiblar haqida hujjatli film yaratiladi.

Loyiha mualliflari: Shuhrat Sirojiddinov (ToshDO‘TAU rektori), Karomat Mullaxo‘jayeva.

2. IV/40. “Balxiy ilmiy merosi” medialoyihasi

Qisqacha tavsif: XIV asr oxiri – XV asr boshida yashagan Balxiyning asarlari va ijodiga oid qadimiy qo‘lyozmalar aniqlanadi. Qo‘lyozmalarning faksimil nusxasi yaratilib, ekspozitsiya tarkibiga kiritiladi, elektron nusxasi esa ekspozitsiya kutubxonasi fondiga joylashtiriladi.

Loyiha mualliflari: Orzigul Hamroyeva, Zilola Shukurova.

3. IV/41. “Xo‘jandiy ilmiy merosi” medialoyihasi

Qisqacha tavsif: XIV–XV asrlarda yashagan Xo‘jandiyning asarlari va ijodiga oid qadimiy qo‘lyozmalar aniqlanadi. Qo‘lyozmalarning faksimil nusxasi yaratilib, ekspozitsiya tarkibiga kiritiladi, elektron nusxasi esa ekspozitsiya kutubxonasi fondiga joylashtiriladi.

Loyiha mualliflari: Akrom Dehqonov, Umarjon Qodirov.

4. IV/97. “Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy” medialoyihasi

Qisqacha tavsif: Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy asarlarining eng qadimgi nusxalari tadqiq etiladi va shu asosda ilmiy ishlanma hamda muzey ekspozitsiyasi uchun kontentlar tayyorlanadi. Qo‘lyozmalarning faksimil va elektron nusxalari yaratiladi.

Loyiha mualliflari: Dilnavoz Yusupova, Akrom Malik.

5. IV/103. “Alisher Navoiy ilmiy-adabiy merosi” ekspozitsiya qismi

Qisqacha tavsif: Alisher Navoiyning ilmiy-adabiy merosi, asarlarining qadimiy va badiiy qo‘lyozmalari tadqiq etiladi va shu asosda ilmiy ishlanma hamda

muzey ekspozitsiyasi uchun kontentlar tayyorlanadi. Qo‘lyozmalarning faksimil va elektron nusxalari yaratiladi.

Loyiha mualliflari: Rustam Jabbarov (O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi ilmiy kotibi), Olimjon Davlatov (Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti), Dilnavoz Yusupova (ToshDO‘TAU).

6. IV/107. “XV asr ikkinchi yarmi Hirot adabiy muhiti namoyandalari – Sayyid Hasan Ardasher, Binoiy, Osafiy, Amir Shayxim Suhayliy, Hiloliy, Mavlono Kamoliy, Darvesh Nozukiy, Mavlono Tarxoniy adabiy merosi” medialoyihasi

Qisqacha tavsif: Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy davrida Hirot adabiy muhitida ijod qilgan adiblar, ularning merosi va tegishli manbalar tadqiq etiladi, shu asosda ilmiy ishlanma hamda muzey ekspozitsiyasi uchun kontentlar tayyorlanadi. Qo‘lyozmalarning faksimil va elektron nusxalari yaratiladi.

Loyiha mualliflari: Dilnavoz Yusupova, Diyora Abdujalilova.

7. IV/235. “Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy” medialoyihasi

Qisqacha tavsif: Muqimiyning ijodiy merosi tadqiq etiladi, shu asosda ilmiy ishlanma va muzey ekspozitsiyasi uchun kontentlar tayyorlanadi.

Loyiha mualliflari: Quldosh Pardayev (filologiya fanlari doktori), Gulzoda Soatova.

8. IV/236. “Zokirjon Furqat” medialoyihasi

Qisqacha tavsif: Zokirjon Furqatning o‘zbek adabiyotidagi o‘rni, she’riy va publitsistik faoliyati, milliy qadriyatlar hamda madaniyatni rivojlantirishdagi hissasi tadqiq etiladi. Shu asosda ilmiy ishlanma va muzey ekspozitsiyasi uchun kontentlar tayyorlanadi.

Loyiha muallifi: Nurboy Jabborov.

9. IV/245. “Mulla Olim Mahdum Xoji ilmiy merosi” medialoyihasi

Qisqacha tavsif: Mulla Olim Mahdum Xoji asarlari tadqiq etiladi, shu asosda ilmiy ishlanma va muzey ekspozitsiyasi uchun kontentlar tayyorlanadi.

Loyiha muallifi: Nurboy Jabborov.

10. IV/246. “Gulxaniy adabiy merosi” medialoyihasi

Qisqacha tavsif: Gulxaniyning adabiy merosi tadqiq etiladi, shu asosda ilmiy ishlanma va muzey ekspozitsiyasi uchun kontentlar tayyorlanadi.

Loyiha mualliflari: Matluba Jabborova, Husan Maqsudov.

11. IV/247. “Maxmur adabiy merosi” medialoyihasi

Qisqacha tavsif: Maxmurning adabiy merosi tadqiq etiladi, shu asosda ilmiy ishlanma va muzey ekspozitsiyasi uchun kontentlar tayyorlanadi.

Loyiha mualliflari: Orzigul Hamroyeva, Furqat To‘xtamurotov.

12. IV/222. “Abulg‘ozi Bahodirxon adabiy merosi” medialoyihasi

Qisqacha tavsif: “Manofe’ ul-inson”, “Shajarayi turk” va “Shajarayi tarokima” asarlarining qo‘lyozma namunalari tadqiq etiladi, shu asosda ilmiy ishlanma va muzey ekspozitsiyasi uchun kontentlar tayyorlanadi.

Loyiha muallifi: Marg‘uba Abdullayeva.

13. IV/178. “Podshohxoja (Xoja) adabiy merosi” medialoyihasi

Qisqacha tavsif: Podshohxoja (Xoja) adabiy merosiga bag‘ishlangan ekspozitsiya yaratiladi, tadqiqot matni tayyorlanadi hamda manbalar va adabiyotlar ro‘yxati shakllantiriladi. Adib faoliyatiga bag‘ishlangan film yaratiladi, moddiy ashyolar fotolari va tavsifi, shuningdek, “Miftohul-adl”, “Gulzor”, “Maqsad ul-atvor” asarlarining qo‘lyozma nusxalari bo‘yicha ma’lumotlar bazasi tayyorlanadi.

Loyiha mualliflari: Marg‘uba Abdullayeva (filologiya fanlari doktori, professor), Dilafruz Nazarova.

14. IV/180. “Muhammad Solihning “Shayboniynoma” asari” medialoyihasi

Qisqacha tavsif: Muhammad Solihning adabiy merosi, xususan “Shayboniynoma” tarixiy dostoni tadqiq etiladi, shu asosda ilmiy ishlanma va muzey ekspozitsiyasi uchun kontentlar tayyorlanadi.

Loyiha mualliflari: Ozoda Tojiboyeva (dotsent, PhD), Fayzulla Iskandarov.

15. IV/228. “Avaz O‘tar adabiy merosi” medialoyihasi

Qisqacha tavsif: Ma’rifatparvar shoir Avaz O‘tarning (1884–1919) o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy muammolari, milliy o‘zlikni anglash va ma’rifat rivojiga qaratilgan asarlari tadqiq etiladi. Shu asosda ilmiy ishlanma va muzey ekspozitsiyasi uchun kontentlar tayyorlanadi.

Loyiha mualliflari: Sohiba Madirimova, Sarvinoz Rasulova.

16. Uvaysiy hayoti va adabiy merosi medialoyihasi

Qisqacha tavsif: Uvaysiy hayoti va adabiy merosi bo‘yicha monografiya tayyorlanadi, uning Qo‘qon adabiy muhitida tutgan o‘rni haqida hujjatli film ishlanadi.

Loyiha muallifi: Iqboloy Adizova.

17. Bayoniyning “Shajarai Xorazmshohiy” asari medialoyihasi

Qisqacha tavsif: Bayoniyning “Shajarai Xorazmshohiy” asari nashrga tayyorlanadi, ma’lumotlar asosida kichik videorolik tayyorlanadi.

Loyiha mualliflari: Iqboloy Adizova, Nusratulla Jumaxo‘ja.

18. Huvaydo adabiy merosi medialoyihasi

Qisqacha tavsif: Huvaydo adabiy merosi bo‘yicha ma’lumotlar to‘planadi, qo‘lyozmalari shakllantiriladi va 10 daqiqalik hujjatli film ishlanadi.

Loyiha mualliflari: Karomat Mullaxo‘jayeva, Barno Murodova.

19. IV/39. “Kamol Xo‘jandiy ilmiy merosi” medialoyihasi

Qisqacha tavsif: Kamol Xo‘jandiyning (1321–1401) asarlari va ijodiga oid qadimiy qo‘lyozmalar aniqlanadi. Qo‘lyozmalarning faksimil nusxasi yaratilib, ekspozitsiya tarkibiga kiritiladi, elektron nusxasi esa ekspozitsiya kutubxonasi fondiga joylashtiriladi.

Loyiha mualliflari: Boqijon To‘xliyev (FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, filologiya fanlari doktori), Ilyos Ismoilov (ToshDO‘TAU).

20. IV/106. “Davlatshoh Samarqandiy ilmiy merosi” medialoyihasi

Qisqacha tavsif: Davlatshoh Samarqandiyning (1436–1495) ilmiy merosi, asarlarining eng qadimgi nusxalari va tegishli manbalar tadqiq etiladi, muzey ekspozitsiyasi uchun kontentlar tayyorlanadi. Qo‘lyozmalarning faksimil va elektron nusxalari yaratiladi.

Loyiha mualliflari: Boqijon To‘xliyev (FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, filologiya fanlari doktori), Ilyos Ismoilov (ToshDO‘TAU, filologiya fanlari doktori).